



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Umirova Kamola

Pastdarg‘om tuman 32-maktab o‘qituvchisi

MATEMATIKA DARSLARINI INTERFAOL USULDA TASHKIL ETISHDA O‘QITUVCHI TAYYORGARLIGIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika darslarini interfaol usulda tashkil etish, interfaol darslarga qo‘yiladigan talablar, o‘qituvchiga interfaol darslarni tashkil etishga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar. Interfaol, usul, interfaol dars, an’anaviy dars

Dunyoning turli mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. Ularda «innovatsiya», «interfaol usullar», «innovatsion texnologiyalar» to‘g‘risida yaxshi axborotlar to‘plangan, biroq innovatsion texnologiyalarini ta’lim muassasalarida o‘rgatish samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq tavsiyalar etarli emas. Davlatimiz rahbari SH. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: –“...mamlakat taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalardir”. SHuning uchun asosiy maqsad yuqori darajada o‘zlashtirish natijalariga erishishni ta’minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan yangi ta’lim texnologiyalarini bo‘yicha pedagogik innovatsiyalardan foydalanish masalalarini tadbiq etishdan iboratdir. Bugungi kunda ta’lim jarayoniga innovsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi:

- o‘quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta’minotini yaratish;
- ta’lim oluvchilarning xususiyatlarini o‘rganish;




o‘qituvchining tayyorgarligi va dars mashg‘ulotini loyihalash.

YUqoridagi vazifalar ichida eng muhimi, bu o‘quv jarayonini tashkil etish uchun eng maqbul bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqishdir. Bu muammolarni u yoki bu aniq bir usulni tavsiya etish bilan, ayniqsa, pedagog reproduktiv ta’lim usullarinigina qo‘llashni maqsad qilgan bo‘lsa, hal etib bo‘lmaydi. Maqsadga erishishning eng to‘g‘ri yo‘li, bu dars mashg‘ulotini loyihalashda integrallashgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan darsning turli bosqichlarida samarali foydalanish imkoniyatlarini izlashdir. Ta’lim muassasalarida fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi metodlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

- o‘yinli texnologiyalar;
- muammoli o‘qitish;
- dasturlashtirilgan o‘qitish;
- kompyuterlashtirilgan o‘qitish;
- modulli o‘qitish.

Bu texnologiyalar o‘quv mavzusi maqsadidan va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, darsning turli bosqichlarida turlicha qo‘llanishi mumkin. Maktab o‘qituvchilarining yo‘nalishlarini hisobga olib, malaka oshirish jarayoni modullarini o‘qitishda g‘oyat samarali bo‘lgan qator o‘yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Mutaxassislarning fikricha, insonning asosiy faoliyat turi uch ko‘rinishi:



Ularning barchasi o‘zaro bog‘liq holda sodir bo‘ladi. Bu uch faoliyatni mujassamlashtirgan pedagogik texnologiyalar, kompyuter texnikasidan foydalanish mumkin bo‘lgano‘yinlaridan foydalanish esa dars jarayonida berilayotgan materiallarni yaxshi o‘zlashtirilishi, dars samaradorligiga erishish ham bir muncha osonlashadi. [5]

Zamonaviy dunyoda insonning harakatini loyihalash qobiliyatiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Loyiha ma’lum bir mahsulot ko‘rinishidagi ma’lum bir natijaga asoslanadi.

Darslarni to‘g‘ri loyihalash, yangi ta’lim texnologiyalaridan o‘rinli foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Loyihalash o‘zi nima?

Loyihalash — mo‘ljallangan ob’ektlar (apparat va asboblar, bino va inshootlar, yo‘l va ko‘priklar, mashina va jihozlar, samolyot va kosmik kemalar, radiopriyomnik va televizorlar, telefon va kompyuterlar, kiyim-bosh va poyabzallar, mebellar hamda boshqa turli-tuman mahsulotlarning yangi xillari va namunalari)ni qurish va yaratish uchun ularning loyihalarini tuzish va chizish jarayoni. Fan va texnikaning barcha sohalarida qo‘llaniladi.

Loyihalash (lot. projectus, so‘zma-so‘z tarjimasi - “oldinga tashlangan”) - mahsulotni yaratish jarayoni, prototip, mo‘ljallangan yoki mumkin bo‘lgan ob’ektning prototipi, holati.

Didaktik loyihalash - bu o‘qituvchining ta’lim jarayoni va uning natijalarini oldindan bilishdir.



Pedagogik loyihalash - darsda o'quvchilar va o'qituvchilarning kelgusidagi faoliyatining asosiy tafsilotlarini dastlabki ishlab chiqish, uning natijalarini prognoz qilish.

Darslarni loyihalash nima?

Dars — maktab ta'limining asosiy tashkiliy shakli. Dars muayyan miqdordagi doimiy o'quvchilar tarkibi bilan qat'iy tartibda uyushtiriladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan didaktik tadbirdir.

Dars — insoniyat tomonidan minglab yillar mobaynida orttirilgan hayotiy tajribalarni o'quvchilarga juda qisqa vaqtida o'rgatishning eng samarali usuli.

Dars — o'quv dasturida belgilangan mavzuning o'qituvchi tomonidan belgilangan vaqtida o'quvchiga etkazish, uning o'zlashtirilishini ta'minlash uchun qabul qilingan mashg'ulot turi.

Darslarni loyihalash — ta'lim texnologiyalarini to'g'ri va o'rinni foydalangan holda dars bosqichlari to'g'ri tizimli tashkil etish jarayonidir. Darslarni loyihalashda o'qituvchining oldida katta mas'uliyat turadi hamda ulardan yuqori kompitentlik talab etiladi.

Darcni tashkil etish va uning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining o'rnini beqiyos bo'lган. Turkiston maktablarida ta'limning tashqi shakliy jihatlariga emas, balki mohiyatiga ham e'tibor berilgan. CHunonchi, o'quvchilarning tayyorligini aniqlash, ularni guruhlarga ajratishda bolalarning yoshi va maktabda qancha vaqt o'qiganligiga emas, balki o'tilgan mashg'ulotlarni nechog'li o'zlashtirganliklariga tayanilgan.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda vakolatli yondashuv quyidagilarni talab qiladi o'qituvchidan ta'lim jarayonini o'zgartirish: uning tuzilishi, tashkiliy shakllari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi faoliyati, sub'ektlarning o'zaro hamkorligi tamoyillari. Bu esa, birinchi navbatda, o'qituvchining ishi muloqotning muloqot usullari birgalikdagi izlanishlarga beriladi, turli ijodiy faoliyat olib borish usullariga yo'l ochadi. Bularning barchasi ta'lim jarayonida interaktiv ta'lim usullari qo'llanilganda amalga oshiriladi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baymurzina Gul'sina Xamatova "Deyatelnost uchitelya pri proektirovaniyu uroka matematiki v sovetstvii s FGOS OOO" prezentsiya.
2. O'zb .M.E.Birinchi jildi. Toshkent, 2000-yil
3. SH.Sadriddinzoda «Ta'lim texnologiyalari izohli lug'ati» -metodik tavsiyanoma/ -Samarqand-2011 yil (4 bet)
4. Ozoda Abdullayeva "O'qitishda o'yinli texnologiyalardan foydalanish" infocom.uz axborot kommunikatsion texnologiyalari jurnali 09.12.2017(<http://uz.infocom.uz/2017/12/09/oqitishda-oyniqli-texnologiyalardan-foydalanish/>)